



## BOSHLANG'ICH SINFLARNING MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH KO'NIKMALARI

**Botirova Muxayyo Berdiyorovna**

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolaning o'qishga qiziqishini uyg'otish, savodxonlik, turli ma'lumotlar bilan ishlash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich ta'lim, ta'lim samaradorligi, ta'lim sifati, matematika, pedagogika, pedagogic texnologiya.*

## SKILLS OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES, PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MATHEMATICS LESSONS OF PRIMARY GRADES

**Botyrova Mukhayo Berdiyorovna**

*Teacher of the Tashkent Institute of Economics and Pedagogy*

**Abstract:** *The main goal of primary education is to arouse the child's interest in reading, literacy, working with various information, knowing the basic mathematical operations and being able to apply them in everyday life, logical and creative thinking, self-discipline. It consists of forming skills such as self-management, self-control in a team, mastering the rules of written and oral communication culture, and organizing educational activities.*

**Key words:** *primary education, educational efficiency, quality of education, mathematics, pedagogy, pedagogical technology.*

Bugungi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan talab va e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Chunki an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, hozirgi zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladigan ta'limda esa o'quvchilar o'zlari mavzuga doir ma'lumotlarni izlab topish, mustaqil o'rganish, ularni tahlil qilib undan kundalik faoliyatlarida to'g'ri foydalana olishga o'rgatiladi. Bu orqali o'qituvchi o'quvchini shaxs bo'lib shakllanishiga sharoit yaratadi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining oldidagi vazifa o'sib kelayotgan yosh avlodda zarur ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich ta'lim sifat-samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotda qo'llay olish kabilardan iborat. Bas shunday ekan hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'qituvchisi ko'proq o'z ustida ishlashi, bilimini boyitib borishi kerak.



Men o'zinning ko'p yillik tajribalarimga tayangan holda yosh avlodga bilim berishda doimo izlanib, yangiliklarni tatbiq qilishga harakat qildim. Men dars mashg'ulotlarida o'quvchilarni kreativ fikrlashini oshirish maqsadida turli pedtexnologiyalardan foydalandim. Ularga dars davomida mantiqiy masalalar, boshqotirmalar berib ijodkorligini, fikrlash qobiliyatini o'stirishga muvaffaq bo'ldim. Bunday boshqotirmalar, mantiqiy topshiriqlar bolalarni matematika faniga yanada qiziqishini uyg'otishiga guvoh bo'ldim.

Demak biz bolalarni ijodiy fikrlashga, mantiqiy masala va turli hayotiy muammolarni yechishga 1-sinfdan ketma -ketlik asosida, bosqichma-bosqich, soddadan murakkabga tomon yo'naltirib o'rgatib borsak, o'quvchilarimiz Prezidentimiz aytgan o'quvchi, zamon talab qilgan buyuk shaxslar bolib yetishib chiqadi. Shularga amal qilib, quyida sizlarga ish faoliyatimda, dars jarayonlarda foydalanib samarali natijalarga erishgan mantiqiy masalalardan, boshqotirmalardan ayrimlarini havola qilaman.

$$\begin{array}{ccc} \boxed{5} & + & \boxed{\phantom{0}} = \boxed{9} \\ + & + & + \\ \boxed{\phantom{0}} & + & \boxed{6} = \boxed{\phantom{0}} \\ || & || & || \\ \boxed{6} & \boxed{\phantom{0}} & \boxed{\phantom{0}} \end{array}$$

Darslarda shu kabi boshqotirma, mantiqiy savollardan foydalansangiz o'quvchilar juda qiziqib hatto tanaffusni ham his qilishmaydi. Darsga bo'lgan qiziqishlari kundan-kunga ortib borishini guvohi bo'lasiz

Bundan tashqari qiziqarli didaktik o'yinlar ham o'quvchilarni o'ylashga, izlashga, fikrlashga o'rgatibgina qolmay fanga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Masalan bularga quyidagi o'yinlarni misol qilish mumkin.

"Zinama-zina" o'yini. Bu o'yinni 1-sinfdan boshlab soddadan murakkab tomon tuzib tashkil qilish mumkin. Bu o'yinni o'tkazishdan maqsad o'quvchilarni mavzu bo'yicha olgan bilimlarini bosqichma -bosqich mustahkamlab borish. Qo'llanishi:

1-qadam: Bu o'yinni o'tkazish uchun o'qituvchi sinf o'quvchilarini ranglar asosidami, raqamlar asosidami kichik guruhlariga ajratib oladi. Har bir kichik guruh uchun sardorlar tayinlanadi. Sardorlar o'yin savollarini olib, guruh a'zolariga birma-bir berib boradi. Agar guruh 6 nafar o'quvchidan tashkil topgan bo'lsa, har bir o'quvchi 5 tadan savolga javob berishi lozim.

2-qadam : Savollar yonida to'g'ri javoblar yozilgani sababli guruh sardorlari guruh a'zolari javoblarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar har bir to'g'ri javob uchun bir balldan to'plab jami 5 ballgacha yig'ishlari mumkin. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni to'plagan baliga qarab qayta guruhlaydi.



3-qadam: Har guruhga o'zlarining iqtidoriga qarab turli xildagi topshiriqlar beriladi. O'quvchilar bu topshiriqlarni bajarib bo'lgandan so'ng o'zaro savol –javob o'tkazadilar, har bir guruh o'z topshiriqlarini ko'rgazmali qurollar yordamida ko'rsatib beradi. Topshiriqni mukammal bajargan kichik guruhlar rag'batlantiriladi va g'oliblar aniqlanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarni ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda raqamlar ham o'z o'rniga ega. O'quvchilarga 1 sonini ko'rsatib, tanishtirib bo'lgandan so'ng yer yuzida nima bitta, degan savol berilib o'quvchilardan javoblar olinadi. Ularning diqqatlari Vatanning bitta bo'lishi onaning yagonaligi, bolalik bir bora berilishi, charaqlab turgan quyosh ham tanholigi, ularni saqlab ardoqlash kabi ko'nikmalar tarbiyalanadi.

2 soni bilan tanishtirish vaqtida, ko'paytirish jadvalini yod olishda turkiy xalqlarning bu sondan ko'p foydalanishlari haqida so'zlab o'tiladi.

2 soni juft sonligi, ota-ona, yer-u-osmon juftliklari, ularga bo'lgan e'tibor haqida to'xtalib o'tiladi. O'zbek xalqining mehmondo'stligi juda ko'p millatlarga ma'lum ular bir payola choydan so'ng, yana bir payola choy iching, juft bo'lsin deb taklif qiladilar. To'ylarimizda dasturxonlarga doimo juft qilib non qo'yiladi, toq qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblanadi. Biron marakada esa non toq qo'yilib, juft qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblanadi.

Matematik bilimlar bilan bir qatorda o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi ham izchil, ketma-ketlikda uzviy ravishda tashkil etilishi lozimdir.

Ta'limda nazariya va amaliyot o'rtasidagi ko'prik-bu ko'rgazmalilik metodidir. Bu metod yordamida ta'lim(dars) jarayonini tashkil etish o'quvchida teran taasurotlar qoldirishi bilan birgalikda ma'lumotlar bazasini yaratishda, ob'ektlar o'rtasidagi muhim bog'lanishlarni anglashga va ularni xotiraga saqlashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari qabul qilingan sanalarni yoddan bilish, ularni o'rganish, hurmat hissini shakllantirishni matematika darslari bilan bog'lash mumkin.

Gerbimizning yuqori qismida Respublika jipsligi ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. Bu sakkiz qirra icida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'idagi 12ta yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadorligi, o'zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozimligi aytib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan tanishtirishda raqamlar aks etgan ko'rgazmalardan foydalaniladi.

Konstitutsiyaning 50-moddasida: "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majbur"liklari ta'kidlab o'tiladi. Ko'rgazmalardan ayniqsa mushukcha, filcha, qush va gullar bunday ishlarni olib borishga yordam beradi.



Xalqimizning milliy, ma'naviy boyliklarga, tarixiy merosiga, mustaqillik g'oyalari va milliy urf-odatlariga hurmat va Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish borasida mustaqillik sharofati bilan Asakadagi avtomobil ishlab chiqaradigan O'zbekiston va Janubiy Koreya qo'shma korxonasi haqida to'xtalib, endilikda o'zbek xalqi o'z mashinasiga ega ekanligi alohida xushnudlik bilan ma'lum qilinadi, shu orqali o'quvchilarda g'ururlanish hissi shakllantiriladi. Matematika darslarida bu mavzuga bog'langan juda ko'p masalalar berilgan, ko'rgazmalar ham yaratilgan, raqamlardan tuzilgan mashinadan foydalanishda shu mavzuga bog'lash mumkin.

Boshlang'ich sinflarining har bir o'quv fanida, xususan matematika darslarida ko'pincha maktab va jamoa mulkini, tabiatni asrashga qaratilgan mavzularga to'xtalinadi. Xuddi shu o'rinda ibratli gaplar, hadislardan namunalar va sonlardan hosil qilingan ko'rgazmalardan foydalanib o'quvchilarda hayvonot dunyosini, tabiatni asrab-avaylashi, uni ko'paytirish uchun qilish zarur bo'lgan say-harakatlar haqida suhbatlar olib boriladi.

Bu kabi metod, o'yin, boshqotirmalar orqali bolalarda tez fikrlash, izlanish qobiliyatlari o'sadi, fanga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi.

1-sinflarda ko'proq rasmlil o'yinlar ko'rgazmali darslar yaxshi taassurot uyg'otadi. Iloji boricha darslarni ana shunday metodlardan, o'yinlardan foydalanib tashkil etsangiz siz tarbiyalagan, bilim bergan o'quvchilaringiz yuqori cho'qqilarni zabt etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акбарова, Л. У. (2020). Особенности рыночной инфраструктуры в современных условиях. *В номере, 9*.
2. Akbarova, L. (2012). Azerbaycan bestecilerinin eserlerinde viyolonsel yeri. *Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 16(1), 33-46*.
3. Акбарова, Л. У., Бексултонов, А. Б., & Иляшов, Б. А. (2021). Бухгалтерский учет в процессе формирования управленческого учета.
4. Акбарова, Л. У. (2019). Особенности эффективного развития инновационного маркетинга и рекламной деятельности в сфере сервиса. *Экономика и социум, (1-1 (56)), 170-174*.
5. Rahmatov DN, Akbarova LU. Sovremennye informacionno-kommunikacionnye tehnologii i ih rol'v sisteme obrazovaniya. *Ekonomika i socium. 2018(11):54*.
6. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X., Egamberdiyeva, N. A. (2022). Increasing the profitability of the learning environment through the organization of adaptive learning. *NeuroQuantology, 1(20), 1217-1224*.



7. Azizovna, E. N. (2023). Autizm sindromli bolalar bilan ishlash hozirgi kunning dolzarb masalasi sifatida. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 3(4), 95-100.
8. Egamberdiyeva, N. A. (2023). Ta'lim klasteri sharoiti – autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida. *Konferensiya*, 1(1), 154-158.
9. Qodirova, F. U.; Egamberdiyeva, N. A. (2023). Ta'lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalarni tashxislash va korreksiyalash ishlarining mazmuni. *Konferensiya*, 1(1), 201-205.
10. Azizovna, E. N. (2022). Bolalar serebral falajida o'yinli metodlardan foydalanish. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 207-210.
11. Эгамбердиева, Н. А. (2022). Воспитание у детей трудолюбия с использованием узбекских народных пословиц. *Воспитание дошкольников*, 1(1), 75-78.
12. Egamberdiyeva, N. A.; Raxmatullayeva, M. R. (2022). Inklyuziv ta'limda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari. *Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari*, 1(1), 163-167.
13. Тожибоева, Г., Юнусова, М., & Салахова, Р. (2021). Use of didactic material in the process of learning writing. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktika*, 1(1).
14. Юнусова, М. Т. (2023). Социальная составляющая языкового образа человека, репрезентируемая фразеологизмами, пословицами, поговорками, взаимосвязь языка и культуры на материале русского языка. *ILM SARCHASHMALARI*, 1(8), 198-203.
15. Yunusova, M. T. (2023). Proverbs, sayings, Phraseologists as a subject of study of the social component of the language image of a person (Based on the material of the Russian language). *Web of Teachers: Inderscience Research*, 1(7), 40-48.
16. Юнусова, М. Т. (2022). ОБРАЗ-КОНЦЕПТ «ЧЕЛОВЕК» В РУССКОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА. *World scientific research journal*, 2(1), 14-20.
17. Сейтниязов, К. М. (2022). Традиционные географические названия. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 689-694.
18. Сейтниязов, К. М. (2022). Некоторые вопросы о Антропотопонимах. *Международная конференция*, 1(4), 4-8.
19. Сейтниязов, КМ. Некоторые вопросы о стандартизации топонимов Каракалпакии. *Международная конференция*, 1(12), 4-9.
20. Сейтниязов, К. М. (2022). Топонимические методы исследования географических объектов. *География: природа и общество*, (2).
21. Seitniyazov, K. M. (2023). Some traditional names in Toponymics. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(4), 842-845.



22. Сейтниязов, К. М. (2023). О некоторые положениях в определении названии географических объектов. *Перспективы современной науки и образования*, 1(1), 85-90.

23. Сейтниязов, К. М. (2023). Методы исследования в топонимике. *Развитие науки и образования*, 1(1), 101-106.

24. Сейтниязов, К. М. (2023). Некоторые виды трансформации топонимов. *Science and Education*, 4(2), 1700-1704.